

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASIDA POLISEMIYA HODISASI

Axmedova Aynurə Quanishbay qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi

aynuraaxmedova345@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroposentrik paradigma, uning mohiyati, zamonaviy yo'nalishlari, o'ziga xos terminlari haqida so'z yuritilgan. Terminlar o'rtaida polisemiya hodisasi "kod" termini orqali ochib berilgan, fikrlar misollar orqali dalillangan.

Abstract: This article discusses the anthropocentric paradigm, its essence, modern directions, and specific terms. The phenomenon of polysemy between terms is revealed by the term "code", and the ideas are proved by examples.

Аннотация: В данной статье рассматривается антропоцентрическая парадигма, ее сущность, современные направления и конкретные термины. Явление многозначности между терминами раскрывается термином «код», а идеи доказываются примерами.

Kalit so'zlar: antroposentrizm, zamonaviy lingvistik sohalar, termin, o'zlashma, polisemiya, monosemiya, baynalmilal, semema, terminologik lug'at.

Key words: anthropocentrism, modern linguistic fields, term, assimilation, polysemy, monosemy, international, sememe, terminological dictionary.

Ключевые слова: антропоцентризм, современные лингвистические поля, термин, ассимиляция, полисемия, моносемия, интернациональная, семема, терминологический словарь.

Til insonlarni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi eng katta in'omlardan biridir. Uzoq yillar mobaynida til va jamiyat, til va inson alohida o'rganilib kelindi. Lekin o'tgan asrga kelib dunyo tilshunosligida til va insoniyatga ajralmas yaxlitlik, bir butunlik sifatida qarash shakllandi, ya'ni tilning inson tafakkurining mahsuli, o'zida muayyan til egasining bilimlarini, lisoniy ko'nikmalarini, tajribalarini saqlovchi vosita ekanligiga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Natijada XX asrning

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

oxirgi yillarda tilshunoslikda tilni shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganish usuliga asoslangan va o‘ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik paradigma paydo bo‘ldi. Antroposentrizm so‘zi lotincha “antropos” – odam va “centrum” – markaz so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, uning mohiyati: har qanday tadqiqotning markazida inson, ya’ni til sohibi turishidir. Til nafaqat til sohibining bilimlarini, ko‘nikma, tajribalarini saqlaydi, shuningdek u o‘zida shaxsning dunyoqarashini, tafakkur tarzini, ruhiy holatini, axloqi, hayot tarzini, milliy mentalitet, milliy madaniyat, qadriyatlarni ham aks ettiradi. Shu sababli bugungi kunda antroposentrik lingvistikaning lingvokulturologiya, pisixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, aksiolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalari ajralib chiqdi. O‘ziga xos ehtiyojlar sababli mazkur zamonaviy lingvistik sohalar ham o‘ziga xos lug‘at tarkibini, terminologik tizimini shakllantirdi.

Tilshunoslikda yangi paradigma – antroposentrizmga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tgan asrlarda o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Buning natijasida zamonaviy tilshunoslik sohalariga oid ilmiy terminlar ham keng ko‘lamda tezlik bilan o‘zbek tiliga o‘zlashdi: *lakuna, konsept, sikript* kabi. Birin-ketin tilshunoslikning ushbu sohalari bo‘yicha tadqiqot metodlari yaratildi, bir qator dissertatsiya, monografiya, o‘quv qo‘llanmalar nashr etildi. Jumladan, antroposentrik sohalarga oid muammolar o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, D.Xudoyberanova, Sh.Safarov kabi olimlar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganildi. Hozirda ham bu tadqiqotlar davom etmoqda.

Ta’kidlaganimizdek, antroposentrik tilshunoslik an’anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda o‘ziga xos terminologik tizimiga ega bo‘ldi. Ma’lumki, o‘z navbatida termin ham umumadabiy leksikadan farqlanadi. Termin qaysi tildan o‘zlashgan bo‘lsa, tilga o‘sha ma’noda, ya’ni monosemali bo‘lib o‘zlashadi. Keyinchalik tildagi har xil o‘zgarishlar sababli unga yangi ma’nolar qo‘shilishi mumkin. Ayniqsa, ilmiy terminlar bir ma’noli – monosemali bo‘lishi lozim. Chunki terminlar semantik jihatdan maxsus tushunchalarni ifodalaydigan, ularning har biri o‘z ma’nosiga ko‘ra unikal bo‘lgan, umumadabiy so‘zlardan bir ma’noliligi, aniqligi, sistemaliligi, kontekstdan xoliligi va emotsiyal jihatdan neytralligi bilan ajralib turuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir [1]. Demak terminga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri uning monosemali bo‘lishidir. Lekin bugungi sohalar terminologiyasida aynan bitta termin bir nechta ma’nolarni ifodalashda foydalilanlayotgani hech kimga sir emas. Xususan,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

aksentuatsiya termini tilshunoslikda quyidagi ma'nolarni ifodalashda ishlatalmoqda: 1. So'z yoki gapdagi ma'lum qismlarni urg'u yordamida ajratish; 2. Tilning urg'u sistemasi; 3. Matnda urg'uni belgilash [1]. Mazkur holatlar terminlarni qo'llashda yoki ularni tushunishda chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday terminlarni juda ko'plab topish mumkin. Birgina tilshunoslik sohasida polisemantik ilmiy terminlar soni anchagina. Bu bir tarafdan salbiy oqibatga olib kelsa, ikkinchi tarafdan ijobiydir, ya'ni ushbu hodisa terminologiyada tejamkorlikka sabab bo'lib, tilda terminlar sonining keskin oshib ketishiga yo'l qo'yaydi. Xususan, yuqorida ta'kidlangan terminning uchta ma'nosini uchta alohida termin bilan atashga hojat yo'q, ya'ni natijada ikkita termin tejalgan.

Ma'lumki, polisemiya umumadabiy, mahalliy leksikaga xos asosiy xususiyatlardir. Ular tilning boyligini, ifoda imkoniyatlarini oshiradi. Biroq terminologik tizimda leksik-semantik hodisalar, xususan polisemiya hodisasi adabiy tildagi kabi ko'p hajmda bo'limgani maqsadga muvofiqdir. Lekin terminlarning aksariyati bugungi kunda polisemiyadan tashqari omonimlik, sinonimlik, antonimlik, graduonimik qatorlarni tashkil qilmoqda. Masalan, *tasnif-klassifikatsiya*, *terminatama*, *semema-ma'no* kabi terminlar aynan bitta tushunchani ifodalaydi. Albatta, bunday parallel tarzda ishlatalayotgan terminlarning bittasi ruscha-baynalmilal o'zlashma sanaladi. Bugungi kunimizda ham lug'at boyligimizdan o'zlashmalarning muqobili qidirilmasdan, uni to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish holati oshib bormoqda. Bu esa tilda o'zashmalarning, baynalmilal terminlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi terminologik lug'at boyligimiz hajmi sezilarli darajada katta. Albatta leksemalarni, terminlarni tartibga solib turuvchi asosiy qurol lug'atlardir. Bugungi kunda ko'plab sohalar o'zlarining alohida izohli lug'atlariga ega. Masalan, "Tarix terminlari izohli lug'ati", "Yuridik terminlar lug'ati", "Tibbiy terminlar izohli lug'ati", "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kabi. Ushbu lug'atlarda agar termin polisemiyali bo'lsa, ma'nolari raqamlar bilan har bir lug'at maqolasida ko'rsatiladi. Zamonlar o'tishi bilan muayyan terminlarga qo'shimcha ma'nolar yuklanadi. Bu holat esa izohli terminologik lug'atlarni yangilab turishni taqazo etadi. Bugungi o'zbek tilshunoslida zamonaviy lingvistik sohalarga oid tadqiqotlarning ko'payishi natijasida termin va uning ko'plab ma'nolari ham o'zlashdi. Jumladan, qo'shimcha semalari hajmining ko'pligi bo'yicha umumadabiy leksikadagi ayrim polisemiyali leksemalardan qolishmaydigan terminlardan biri *kod* terminidir. Bu

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

baynalmilal terminning ma'nolarini izohlashda ensiklopedik va izohli lug'atlarga murojaat qilamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu terminga quyidagicha izoh berilgan: "fr. Code, lot. Codex – qonunlar majmui. Aloqa (telegraf, telefon, radio kabilari), avtomatik boshqarish tizimlarida, EHM (elektron hisoblash mashinalari)da istalgan axborotlarni uzatish, qayta ishslash va saqlash uchun qo'llaniladigan, ma'lum tartibdagi shartli belgi, ramzlar yoki signallar tizimi. *Telegraf kodi.*" [2]

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa mazkur terminning beshta ma'nosi keltirilgan: 1) turli axborotlarni ifodalovchi shartli belgilar tizimi; 2) raqamli hisoblash mashinalari (RHM) va dasturlar tayyorlash uchun qo'llaniladigan shartli belgilar tizimi; 3) telemexanikada – ma'lumotlarni aloqa kanali orqali uzatish uchun mo'ljallangan signallar tizimi; 4) astronomiyada – kometalar, yangi va o'rta yangi yulduzlar kashf qilinganligi, sayyoralarda noyob hodisalar kuzatilganligi va b. haqida rasadxonalar va astronomik telegrammalar xalqaro markaziy byurosi orasida o'zaro telegraf axborotlari almashishda qo'llaniladigan so'z va raqamlar tizimi; 5) harbiy sohada – harbiy mazmundagi maxfiy ma'lumotlarni yashirin uzatish uchun qo'llaniladigan shartli belgilar tizimi. Shartli belgilar shtablar tomonidan tuzilishi, raqamli, harfli va maxsus belgili bo'lishi mumkin[3]. Demak, mahfiylik, yashirinlilik, maxsus belgilardan iboratlilik ushbu terminning asosiy xususiyatlaridir. Termin mazkur ma'noda tilshunoslik sohasiga ham o'zlashdi va bugungi zamonaviy lingvistik yo'nalishlarda, tadqiqotlarda faol tarzda foydalaniлоqda. Jumladan, kod termini kompyuter lingvistikasida maxsus belgilardan iborat jumlalar ma'nosida qo'llaniladi. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasida milliy korpus yaratish, lingvistik saytlar, axborotni saqlovchi, yetkazib beruvchi har xil dasturlar, elektron izohli va murakkab tezaurus lug'atlar ishlab chiqish kabi amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu kabi vazifalarda, albatta, kodlar eng muhim elementlardir. Bunda kodlar muayyan raqam va harflar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Masalan, elektron lug'atlar yaratish jarayonida lug'atning izohlanayotgan har bir so'ziga mutanosib keluvchi kodlar ishlab chiqiladi va unda so'zning barcha zaruriy morfologik, sintaktik, leksik xususiyatlari jamlangan bo'ladi: "katta" so'zi o'rniga K0083 kodi ishlatiladi.

Sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi sohalarda kod termini boshqacha talqin qilinadi. Bunda u muloqot vositasi bo'lib, tabiiy tillar (o'zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun'iy tillar: esperanto, zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kod deyilganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.[9]

Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatini, tilning takakkur mahsuli ekanligini o‘rganuvchi tilshunoslikning yangi sohasidir. Bunda ham kod tafakkurimizdagi so‘zlar – obrazlarga nisbatan ishlataladi. Kognitiv tilshunoslikda UPK (universal predmet kodi) degan tushuncha bor. Borliqdagi har qanday predmet, tushunchalar ongimizda muayyan obrazlar sifatida yashaydi. Masalan, “gul” bir kishi uchun “atirgul” bo‘lsa, boshqasi uchun “rayhon”, yana biri uchun “lola”.[5] Ko‘ringanidek, umumlashgan va qisman mavhumlashgan obraz har bir shaxsda individuallashadi. Lekin ular tafakkurda barcha uchun bir xil kod – ramziy belgi (“gul”)ni hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, terminlar o‘rtasida nafaqat polisemiya, balki deyarli barcha leksik-semantik hodisalar: antonimiya, sinonimiya, omonimiya, graduonimiya, giponomiya kabilar ham uchraydi. Bu kabi holatlarni lug‘atlarda ko‘rsatish, ilmiy terminlar uchun maxsus polisemantik, omonimik, antonimik lug‘atlar yaratish kabilar terminologik tizimni tartib solishda, takomillashtirishda muhim bo‘lgan amaliy vazifalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 83.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 386.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. XIV tomlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B. 469.
4. Rashidov T.R. Politexnika lug‘ati. – Toshkent, 1989
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – B. 16.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008
7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013
8. Toirova G. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
9. Usmonova Sh va boshq. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2014. – B. 79.
10. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2014
11. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020
12. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015
13. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013